

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASH  
QOBILYATINI OSHIRISH METODIKASI**

Rajabova Munisa Aminboy qizi

Guliston Davlat Universiteti Psixologiya va iltimoiy fanlar fakulteti

3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishda misol va masalalar yechish orqali bir qator matematik tushunchalar, arifmetik amallar, ularning mohyatini ochib berish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblash ko‘nikmalarini o‘stirish bilan birga mantiqiy birligiga bog’langan tushunchalar, ta’riflar, qoidalar va xulosalarni keltirib chiqarish o‘quvchilarning matematik tafakkurlarini rivojlantirish.

**Kalit so‘zi:** Masala, matematik tushunchalar, arifmetik amallar, Bir amal bilan yechiladigan mantiqiy sodda masalalar, mantiqiy (ikki, uch va undan ham ortiq amall) murakkab masalalar.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga matematika asoslaridan puxta bilim berish, ularda yuqori darajada mustaqillik onglilikni shakllantirish, turmushga, kasblarni ongli tinglashga o‘rgatishdir. O‘quvchilarga matematika bo‘yicha dastur hajmida bilimlar berish bilan birga ularga o‘rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo‘lishini ta’minlash, olgan bilimlarini turmushga qo’llay olish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, matematika darslarida o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish dastur hajmidagi bilimlarni mustahkam egallashlarining muhim omili hisoblanadi hamda kelgusi matematik bilimlarni egallashlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarga matematika bo‘yicha bilimlarning puxta bo‘lishi va ularni turmushga ongli ravishda qo’llashni bilishlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, matematik bilimlarni turmush bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish. Ikkinchidan, har bir matematika darslarida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan yo‘nalishda o‘rganish. Ushbu xususiyatlarni o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish asosida ishlab chiqish va amalda qo’llash o‘qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham matematikadan puxta bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish bilan birga o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish hisoblanadi. Demak, boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish jarayonida qiziqarli mashqlar va masalalar, didaktik o‘yinlardan foydalangan holda o‘quvchilarga yetkazib berilsa, ularning fanga bo‘lgan qiziqishlari oshadi va mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi.

Birinchi sinflarda o‘quvchilarning tafakkurlarini rivojlantirishda matematika o‘qitishning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishda misol va masalalar yechish orqali bir qator matematik tushunchalar, arifmetik amallar, ularning mohyatini ochib beradi. Shuningdek o‘quvchilarning hisoblash ko‘nikmalarini o‘stirish bilan birga mantiqiy birligiga bog’langan tushunchalar, ta’riflar, qoidalar va xulosalarni keltirib chiqarish o‘quvchilarning matematik tafakkurlarini rivojlantirish.

biriga bog'langan tushunchalar, ta'riflar, qoidalar va xulosalarni keltirib chiqarish o'quvchilarning matematik tafakkurlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

- Matematika darslarida har bir misol va masalaning qiziqarligrini ta'minlash orqali ularning mantiqiy fikrlash qobliyatlari rivojlantiriladi va uzviyligi ta'minlanadi bu esa o'quvchilarning puxta bilimlarni egallashlarini ularda umumiy fikrlash qobliyatlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi;

- Boshlang'ich ta'lilda matematika o'qitishning arifmetika materiallari bilan birga geometrik materiallar ham uzviy ravishda o'rganiladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida geometrik tasavvurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, fazoviy tasavvurlarini ham rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf matematika darslarining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda berilgan har bir tushuncha amaliy mashqlar va masalalarni yechish jarayonida ochib beriladi.

"Fikriy hujum" metodi. Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faoliyklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. "Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qilash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lil jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laming kengligiga bog'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir saotga qadar tashkil etilishi mumkin.

"Yalpi fikriy hujum" metodi. Ushbu metod J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qollash mumkin. Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqqaq ichida ijodiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijodiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axdorot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruqlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruqlar a'zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

O'quvchilarda boshlang'ich mакtabda shakllanadigan amaliy bilim, ko'nikma va malakalar matematika kursining keyingi bosqichlari uchun fundament vazifasini bajaradi. Haqiqatdan ham quyi sinflarda shakllanadigan arifmetik hisoblashlarning yozma va og'zaki bajarish jarayonida olgan bilim, ko'nikma va malakalari o'quvchilarning yuqori sinflarda matematikadan oladigan bilimlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf matematika darsligida berilgan mantiqiy masalalar o'quvchilarni fikrlashga va keng mushohada qilishga undaydi. Ularni tushuntirishda turli usullardan foydalanish va uni amalda qollay olish

muhim. Mantiqiy masalalar kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarni hal etishda, o'rabi turgan muhitni chuqurroq anglashda katta ahamiyatga ega. Bunday masalalarni darsda va darsdan tashqari hollarda ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini masalalar yechishga o'rgatish metodikasi" Quvonova . D. Toshkent-2019-yil
2. Boboyev O.P., Shamsiyeva G.F. Matematikadan qo'shimcha masala, mashq va misollar T.: Turon-Iqbol, 2017 -yil
3. Matematika 1-sinf. Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / N.Sh. Ruzikulova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.– 144 b.
4. Matematika 1-sinf [Matn]: darslik / L. O'rino boyeva [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 160 b